ONOMASTIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK VA GRAMMATIK-STRUKTURAL TAHLILI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i03.008

Ilxomjon Axmadjonov
Oyshabibi Fayzullaeva
FarDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada onomastik birliklar, xususan antroponim, toponim va gidronimlarning badiiy matndagi o‘rni, onomastik birliklarni funksional-semantik va grammatik-struktural yondashuvlar orqali tahlil qilish, ularning qo‘shimcha semantik yuklama va stilistik imkoniyatlarini o‘rganish hamda lingvistik, badiiy va madaniy rolini mukammal aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: onomastika, stilistika, antroponim, toponim, gidronim, semantika, alyuziv nom

FUNCTIONAL-SEMANTIC AND GRAMMATICAL-STRUCTURAL ANALYSIS OF ONOMASTIC UNITS

Ilkhomjon Akhmadjonov
Oyshabibi Fayzullaeva
FerSU

Abstract: This article examines the role of onomastic units, specifically anthroponyms, toponyms, and hydronyms, within literary texts. The analysis of onomastic units through functional-semantic and grammatical-structural approaches enables the study of their additional semantic burden and stylistic potential, allowing for a comprehensive determination of their linguistic, artistic, and cultural significance.

Keywords: onomastics, stylistics, anthroponym, toponym, hydronym, semantics, allusive name

Kirish

Onomastika - bu yer yuzidagi joylar, odamlar, tabiat ob’ektlari va boshqa hodisalar uchun nomlar yoki ism-shariflarning o‘rganuvchi fani hisoblanadi. Onomastika - yunoncha so‘z bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1) ma’lum bir til, xalq tarkibida

(cc) BY

qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi[27].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘zbek antroponimlarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish, asosan, 1960-yillarda yuzaga keldi. Dastlab, D.Abdurahmonovning “Nom qo‘yish” maqolasi nashr qilindi. O‘zbek tilshunosligida antroponimika masalalarini o‘rganish, ularni ilmiy tadqiq qilish ham o‘z tarixiga ega. Bu sohada S.Ibrohimov, E.Begmatov, R.Qo‘ng‘urov, D.Abdurahmonov, G‘.Sattorov va boshqalar qator maqola va monografiyalar e’lon qildilar[28].

Muhokama va natija

Onomastik birliklarning grammatik-struktural va semantik xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligida ham nisbatan yangi va dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligida onomastika, antroponimika, toponimika sohalarida sezilarli yutuqlarga erishildi. Har qanday onomastik birlik badiiy matnda muallif niyatiga bo‘ysungan holda grammatik jihatdan qayta faollashadi, semantik jihatdan esa ikkilamchi - konnotativ, ramziy va pragmatik ma’nolar bilan boyiydi. Til birliklarining grammatik imkoniyatlari hamda semantik sig‘imi aynan badiiy matnda to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Tilshunos N.Mahmudov konnotatsiya masalasiga alohida urg‘u berib, tilda konnotativ qatlamning mavjudligi va barqarorligi tilning tarixiy chuqurligi hamda semantik boyligidan dalolat berishini ta’kidlaydi[29]. Bu holat, ayniqsa, onomastik birliklarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki atoqli otlar grammatik jihatdan oddiy ko‘rinsa-da, semantik tuzilishi murakkab bo‘lib, ular orqali baholash, munosabat, emotsional-ekspressiv ma’nolar ifodalanadi. Badiiy matndagi onomastik birliklarni to‘liq anglash uchun faqat grammatik bilimning o‘zi yetarli emas. Chunki bu birliklar tarkibida nominativ ma’no bilan bir qatorda tarixiy, madaniy, psixologik va assotsiativ semantik qatlamlar mujassam bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida onomastic birliklarning, xususan, antroponimlarning grammatik va uslubiy jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning semantic-funksional vazifasi haqidagi ilmiy nazariyalar yetarlicha emas. Onomastik birliklarni har bir yozuvchi ma’lum bir maqsad va sababni o‘ylagan holda matnda qo‘llaydi va u orqali o‘quvchiga mazmuniy xarakter ifodasini yuzaga keltirishga turtki beradi. Ma’lumki, kishi ismlari grammatik jihatdan atoqli otlar sifatida shakllangan bo‘lsa-da, semantik jihatdan milliy tafakkur, xalq turmush tarzi, ijtimoiy munosabat va baholashni ifodalaydi. Bu birliklar nominativ vazifadan tashqari, ism sohibiga bo‘lgan munosabatni ham o‘zida mujassam etadi. Badiiy adabiyotda esa

[27] Begmatov E, Uluqov N. O’zbek onomastikasi terminlarining izohli lug’ati.- Namangan, 2006.-B.60
[28] Bayramali Kilichev . Onomastika [Matn] : o‘quv qo‘llanma . – Buxoro: 2023.
[29] Mahmudov N. (Ahmad S., Vladimirova N. orqali keltirilgan). O‘zbek tili va adabiyoti, 1973, №4.

(cc) BY

antroponimlar qahramonlarni nomlash bilangina cheklanmay, yozuvchining turli badiiy hamda semantik maqsadlariga xizmat qiladi.

Sharq mumtoz adabiyotida ham onomastik birliklarning funksional-semantik yuklamasi aniq namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Qutadg‘u bilig” asaridagi Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmish kabi nomlar grammatik-struktural jihatdan fe’l asoslaridan yasalib, semantik jihatdan adolat, davlat, aql va qanoat tushunchalarini personifikatsiya qiladi[30]. Bu holatda onimlar abstrakt kategoriyalarni ifodalovchi semiotik birlik sifatida ishtirok etib, matnning konseptual tizimini shakllantiradi.

Badiiy matnda onomastik ko‘lam oddiy nominativ vazifa bilan cheklanmay, muallif g‘oyasini ochish, obraz yaratish, tarixiy koloritni berish, komik yoki dramatik effekt hosil qilishda faol ishtirok etadi. Shu sababli zamonaviy matn tilshunosligida onomastik birliklar alohida funksional-semantik tizim sifatida talqin qilinadi. Umuman olganda, badiiy matnning onomastik ko‘lami asarning struktural-semantik yaxlitligini ta’minlash, muayyan janrga xos badiiy effektni yuzaga keltirish (masalan, tarixiy kolorit yaratish), matnning ko‘pqatlamliligini kuchaytirish, xalq mentaliteti va milliy madaniyatini ifodalash hamda ijodkorning badiiy tafakkur darajasini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois badiiy asar tili tadqiqida onomastik ko‘lam muammosini alohida yo‘nalish sifatida o‘rganish zarur.

Til birliklarini ularni yaratuvchi shaxs va etnos bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish natijasida lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi yangi yo‘nalishlar shakllandi. Ushbu sohalarda olib borilgan tadqiqotlar onomastik birliklarga ham yangicha yondashuvni yuzaga keltirdi. Onomastik birliklarning funksional-semantik va grammatik-struktural tahlili badiiy matnni chuqur anglashning muhim shartlaridan biridir. Atoqli otlar nafaqat nomlash vositasi, balki estetik, madaniy va kognitiv axborotni mujassam etuvchi kompleks belgilar tizimidir. Shu sababli badiiy asar tili tadqiqida onomastik ko‘lamni alohida ilmiy muammo sifatida o‘rganish zarur.

Funksional-semantik yondashuv onomastik birliklarning faqat nomlash vazifasigina emas, balki ularning qo‘shimcha semantik yuklama va stilistik imkoniyatlarini ham tahlil qilishni nazarda tutadi. Badiiy nutqda atoqli otlar ko‘pincha konnotativ ma’nolarni faollashtirib, obraz xarakterini, muallif munosabatini yoki voqelikning baholanishini ifodalaydi.

Masalan, hajviy asarlarda qo‘llaniladigan to‘qima antroponim va toponimlar ham ko‘pincha kulgi uyg‘otish, kinoya va istehzoni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Grammatik-struktural tahlil onomastik birliklarning yasalish modellari, morfologik shakllari, sintaktik pozitsiyalari va matndagi struktur vazifalarini aniqlashga

[30]Karimov Q. “Qutadg‘u bilig” asarida uchraydigan shaxs nomlari // *O‘zbek tili va adabiyoti.* – Toshkent, 1967. – №2. – B. 42.

(cc) BY

qaratiladi. Atoqli otlar so‘z yasalishining turli usullari orqali hosil bo‘lib, ularning tarkibida affikslar, komponentli tuzilmalar, so‘z birikmalari keng qo‘llanadi.

Masalan, -qul, -bek, -xon, -boy komponentlari ishtirokidagi antroponimlar o‘zbek tilida ijtimoiy-madaniy ma’nolarni ifodalovchi produktiv model sifatida namoyon bo‘ladi (Boyqul, Yo‘g‘onbek, Arbobxonim va b.). Ushbu struktural birliklar semantik jihatdan baholovchi, kinoyaviy yoki ijtimoiy xarakterlovchi yuklamani ham o‘zida mujassam etadi.

Grammatik-struktural yondashuv onomastik birliklarning matndagi sintaktik va morfologik xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Matn doirasida onomastik birliklar ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi kabi sintaktik vazifalarda kelib, ko‘pincha mikromatn markazi sifatida ishtirok etadi. Lingvopoetik yondashuv onomastik birliklarning estetik, obrazlilik va badiiylikni yuzaga chiqarishdagi rolini ochib beradi. Har bir atoqli ot badiiy matnda muayyan poetik yuklama bilan kiradi va umumiy semantik makonni boyitadi. Nazmiy matnlarda ayniqsa tarixiy, mifologik va adabiy manbalardan olingan nomlar intertekstuallikni yuzaga keltiradi. Grammatik tuzilish jihatidan onomastik birliklar asos va qo‘shimchalarga, ikki va undan ortiq so‘zlar birikuvidan tashkil topgan birliklarga bo‘lib o‘rganiladi.

Ular gap tarkibida turli sintaktik funksiyalarni bajaradi, ya’ni sub’ekt, ob’ekt, attribut yoki predikat sifatida ishlatilishi, turli qo‘shimchalar bilan ishlanib, matn ohangini, rasmiylik darajasini va stilistik effektni oshiradi. Masalan, qo‘shimchalar orqali nomning mazmuniy yoki emotsional rangini kuchaytirish mumkin. Grammatik-struktural yondashuv onomastik birliklar vositasida stilistik effektlar, jumladan tazod, tashbeh yoki tajnis hosil qilinishini o‘rganadi.. Masalan, o‘zbek tilida antroponimlar «o‘g‘li» yoki «qizi» qo‘shimchalari bilan shakllanadi, bu esa patronim va matronim turlarini hosil qiladi. Struktural yondashuvda onomastik birliklar tilning umumiy grammatik tizimiga integratsiya qilinadi. Onomastik birliklar morfemalarga (so‘z qismlari) ajratiladi, ularning yasalishi (derivatsiya) va grammatik kategoriyalari o‘rganiladi. Masalan, toponimlar oykonim (aholi punktlari nomlari), oronim (tog‘ nomlari) va gidronim (suv nomlari) kabi mikroko‘lamlarga bo‘linadi.

Onomastik birliklarning lingvistik tahlildagi ahamiyati ularning badiiy, kognitiv va madaniy jihatlarini birlashtirishda namoyon bo‘ladi. Jumladan**,** badiiy matnning struktural-semantik yaxlitligini ta’minlab, matn qatlamlarini bog‘lab, qahramonlar, voqealar va tarixiy kontekstni uyg‘unlashtiradi. Antroponim va toponimlar orqali tarixiy kolorit, milliy mentalitet va madaniyat timsoli yaratiladi. Onomastik birliklar tinglovchi yoki o‘quvchining xotirasida mustahkam saqlanib, ma’lum assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi va matnni eslab qolishni osonlashtiradi. Stilistik vosita sifatida tajnis, tashbeh va allyuziya kabi badiiy san’at vositalari onomastik birliklar yordamida kuchayadi.

Xulosa

(cc) BY

Badiiy matnning onomastik ko‘lami asarning struktural-semantik yaxlitligini ta’minlash bilan birga, ma’lum janrga xos badiiy effektni yaratishda, matnning qatlamli tuzilishini boyitishda, xalqning milliy mentaliteti va madaniy kodini ifodalashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli badiiy asar tili tadqiqotida onomastik ko‘lam muammosi alohida o‘rganilishi lozim. Ayniqsa, muayyan ijodkorning butun asarlari yoki alohida bir asar kontekstida onomastik birliklar tahlil qilinishi samarali natija beradi.

Onomastik birliklar badiiy matnda nafaqat nom sifatida (nominativ funksiyada) ishlatilmay, balki onomastik metafora, allyuziv nom va “so‘zlovchi” nom kabi turli funksional-stilistik rollarni bajaradi. Shu orqali ular ijodkorning subyektiv munosabatini ifodalash va matnga o‘ziga xos badiiy nuans kiritishda xizmat qiladi. Onomastik birliklar nafaqat predmet yoki shaxsni belgilash (nominativ funksiyani bajarish) bilan cheklanmay, balki turli ramziy va allegorik ma’nolarni ifodalash imkonini beradi. Bu esa matnga chuqurlik va ko‘p qatlamlilik beradi. Ayniqsa she’riy matnlarda onomastik birliklar turli badiiy san’at vositalari va uslubiy figuralarni (tajnis, tashbeh, tazod, ishtiqoq va boshqalar) yuzaga keltirishda muhim omil sifatida ishtirok etadi. Shu tarzda ular matnning estetik qiymatini oshirib, ijodkorning badiiy tafakkurini namoyon etadi. Shu tarzda, onomastik birliklarni funksional-semantik va grammatik-struktural yondashuvlar orqali tahlil qilish ularning lingvistik, badiiy va madaniy rolini mukammal aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E, Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati.-Namangan, 2006.-B.60

2. Bayramali Kilichev. Onomastika [Matn] : o‘quv qo‘llanma. - Buxoro: 2023.

3. Mahmudov N. (Ahmad S., Vladimirova N. orqali keltirilgan). O‘zbek tili va adabiyoti, 1973, №4.

4. Karimov Q. “Qutadg‘u bilig” asarida uchraydigan shaxs nomlari // O‘zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1967. - №2. - B. 42.

(cc) BY